




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.	
15	Mohinur USMONOVA, O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA, Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серик ТУРПАНАЛИЕВ, Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA, O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA, Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA, Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA, Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO‘LATOVA, Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA, O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA, Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA, Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA, “Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)	590
30	Nilufar TURG‘UNOVA, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinov RAXIMOVA, G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA, Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi	599
33	Diyora NE‘MATOVA, Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA, Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV, Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O‘KTAMOVA, Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617

O'ZBEK VA NEMIS ERTAKLARIDA XALQONA AN'ANALAR

FOLK TRADITIONS IN UZBEK AND GERMAN FAIRY TALES

Amina DEHQONOVA,

TOSHDU 'TAU magistranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/KHEP4065

Annotation. *This article provides a comparative analysis of key structural features in Uzbek and German folk tales, focusing on introductions, conclusions, and the anonymity of certain characters. The study shows that both traditions use formulaic openings that prepare the audience for a magical or realistic narrative, as well as symbolic endings emphasizing the victory of good over evil. The anonymity of characters serves to create generalized, collective images. Uzbek tales are notable for their rich symbolism and rhythmic imagery, whereas German tales often begin with concise, factual statements. The article highlights shared aesthetic elements alongside distinct national features within both folk traditions.*

Key words: *folk tales, composition, traditions, introduction, conclusion, anonymous characters, symbolism, imagery, comparative analysis.*

O'zbek va nemis xalq ertaklari geografik va etnografik jihatdan bir-biridan yiroq bo'lishiga qaramay, ularning kompozitsion tuzilishida mushtarak an'analar mavjud. Kirish qismida tinglovchini ertak olamiga olib kiruvchi badiiy formulalar, tugallamada esa voqeani mantiqan yakunlovchi an'anaviy qoliplar ustuvor o'rin tutadi. Shuningdek, qahramonlarga maxsus ism berilmasligi ularning timsoliy va umumlashgan xarakterini kuchaytiradi. Kirish qismi tinglovchini sehrli yoki hayotiy voqeaga tayyorlab, ertak olamiga olib kirsa, tugallanmalar yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasini ramziy tarzda ifodalaydi [Komiljon Imomov, 2008: 115-116].

Ertaklardagi kirish qismi dastlab mavhum zamon va makon birligida voqeaning ro'y berayotganligini ifodalaydi. Bu o'quvchini tasavvur olamiga olib kirishga yordam beradi. Kirish syujetning alohida qismi bo'lib, uning mukammal namunasi, professional ertakchi repertuarida uchraydi. U boshlamadan oldin keladi, doimiy element emas, an'anaviy formula shaklini olgan. Kirish ertakning timsoliy ma'nosiga ishora qiladi [Komiljon Imomov, 2008: 116]. Masalan, ba'zi o'zbek xalq ertaklari asosan shu tarzda boshlanadi: "Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir kampir bilan bir chol bor ekan [O'zbek xalq ertaklari, 2013: 16]. Aka-uka Grimm ertaklarida voqealar odatda qisqa va aniq boshlanadi. "Bir bor ekan ..." yoki "Uzoq vaqtlarda ..." kabi formulalar yordamida ular voqeani noma'lum va aniqlanmagan tarixga joylashtiradi: "There was once upon a time a tailor who had three sons, and only one goat [Grimm, J., Grimm, W., 2013: 167] (Uzoq vaqtlarda, shu yerlarda uch o'g'li va bir echkisi bo'lgan tikuvchi bo'lgan ekan)". Ko'rib turganimizdek ikki xalq ertaklarida ham o'quvchini voqeaga olib kiruvchi kirish qismi mavjud bo'lib, ularning bir-biridan farq qiluvchi jihati – o'zbek ertaklarida ko'proq ramziylik va obrazlilik yaqqol ko'zga tashlanadi: "Ertagi ertagi, echkilarning bo'rtagi, qirg'ovul qizil ekan, quyruqi uzun ekan, ko'k muzga mingan ekan, muruti singan ekan", "g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, olakarqa azonchi, qorakarqa qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to'rg'ay to'qimchi ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, ertaginging eri bor, yetti

kunlik eri bor, yetti kunlik erida dumi kalta bo'ri bor" [Komiljon Imomov, 2008: 117]. Bunday har bir obraz o'ziga xos ramziy ma'noga ega bo'lib, ertakni boshlashdan oldin o'quvchini o'ziga jalb etadi, undagi ohangdorlikni oshiradi. Nemis ertaklarida esa ortiqcha obrazlarsiz, qisqa va lo'nda bo'ladi. Bu esa tinglovchida tafsilotlar yoki shaxslar haqidagi savollarni kamaytiradi va e'tiborni asosiy voqeaga qaratadi. Shu tarzda ertaklar har doim oddiy, sodda va voqeaga tez kirish bilan boshlanadi o'tayotgan mavhum vaqt va joy aytib o'tiladi xolos[4]. Demak, o'zbek xalq ertaklarida ramziylik va obrazlilik kuchli. Nemis xalq ertaklari esa xalq tilidan yozib olinib, ertakchining badiiy taffakkuri suvida sug'orilsada, ularning kirish qismida bunday xususiyatlar mavjud emas.

Ertaklardagi obrazlarning yana bir xususiyati borki, bunday xususiyat har ikki xalq ertaklarida ham ko'pgina joylarda qo'llanilgan. Bu ba'zi ertak qahramonlarning nomlanmasligi, ya'ni maxsus bir ismsiz shunchaki chol, kampir, podshoh, dehqon, fermer, tikuvchi va shu kabi umumiy nom bilan keltirilishi. Nega ularga ham boshqa ertak qahramonlari singari alohida ism berilmagan? Bunga javob taqirasiida shuni aytishimiz mumkinki, bunday obrazlar asosan umumlashgan xarakterni ifodalab keladi. Ya'ni, xalqning orzu-istaklarini ifoda etuvchi ertaklarda chol, kampir, dehqon, fermer (yoki biror kasb egasi sifatida ham kelishi mumkin), podshoh obrazlari xalqning o'ziga ishora qiladi. Bunda ertakdagi bosh qahramon obrazida xalq o'zini tasavvur qiladi, shuning uchun ham uni nomlab aynan qaysidir shaxsga bog'lamaydi. Binobarin, har qanday chol, kampir yoki dehqon ertak qahramonlari o'rnida bo'la oladi, o'zini ertak olamiga tushib qolgandek his qiladi va sarguzashtlar sari intiladi. Misol tariqasida yuqorida keltirgan ertaklarimizdagi kirish qismiga yana bir bor e'tibor qaratadigan bo'lsak, "Ur to'qmoq" ertagida chol va kampir obrazi, "[The Wishing-Table, The Gold-Ass, and The Cudgel in the Sack](#)" (ya'ni, Tilaklarni bajaruvchi stol, oltin eshshak va haltadagi tayoq) ertagida esa tikuvchi va uning o'g'illarini olishimiz mumkin. Shuningdek, ushbu xarakterlar nomsiz berilishidan tashqari, turli tabaqalarda, yoki oddiy chol, kampir, kambag'al dehqon yoki boy va podshoh kabi ijtimoiy qatlamlar orqali ifodalangan. Shuningdek, kambag'al ham emas boy ham emas kabi varianti ham mavjud bo'lib, fikrimcha faqatgina oddiy xalq emas balki boylar ham, xattoki, podshohlar ham hayotda turli sinovlarga uchrashi mumkinligini ko'rsatadi. Bu xarakterlar har ikkala xalq ertaklarida ham mavjud va bir xil ma'no kasb etgan bo'lishi mumkin.

Ertaklardagi tugallama kompozitsion tuzilmaning muhim bo'lagi bo'lib, u voqeani mantiqan yakunlash, qahramonlarning taqdirini belgilash va asarning g'oyaviy yo'nalishini to'liq ochib berish vazifasini bajaradi. Bunda asosan qahramon sinovni yengib o'tgani yoki ko'zlangan maqsadga yetganidan so'nggi taqdiri aks etadi. O'zbek xalq ertaklarida asosan: "Murod maqsadiga yetdi" [O'zbek xalq ertaklari, 2013: 16], "Qirq kecha-yu qirq kunduz to'y qildi" kabi variantlari ham mavjud. Nemis xalq ertaklarida ham tugallama qahramonning keyingi taqdiri haqida ma'lumot beradi. Masalan, yuqorida keltirgan ertagimizda tikuvchining uch o'g'li va bir dona echkisi bo'ladi degan edik. Tikuvchi ana shu uch o'g'liga echkika yem berishni buyuradi. Ular bu ishni bajaradi. Ammo, otasi ishdan kelib so'raganda, echki yolg'on so'zlab, och qoldim deydi. Bundan ota g'azablanib uch o'g'lini uydan haydaydi. Ertakning sarguzasht qismi ana shu yerdan boshlanadi. O'g'illari ketganidan so'ng ota ham echkiga xohlaganing yeyishi mumkin bo'lgan miqdordagi yemni tashlab ketadi. Qaytib kelib so'raganda, echki tikuvchiga ham och qolganini, hech nima yemaganini aytadi. Shunda ota aybini tushunib yetib, afsuslanadi. Bu orada aka-ukalar har biri xunar o'rganib, uni to'liq egallagach, ustozidan sehrli sovg'alarni olib, uyga qaytyotganda hiylaga uchrab sehrli buyumlarini o'g'irlatib qo'yadi.

O'rtancha aka bilan ham shunday bo'ladi. Shunda eng kichigi o'zining haltadagi tayog'i bilan o'g'rilarning adabini berib akalariga sehrli buyumlarini qaytaradi va uyga, otalarining oldiga qaytishadi. Ertakning oxiri aka-ukalarning sehrli buyumlar bilan otasining uyida rohat-farog'atda yashagani-yu, ularning uydan haydalinishiga sababchi bo'lgan echkinning keyingi taqdiri nima bo'lganligi aytib tugatiladi.

O'tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek va nemis xalq ertaklarida badiiy tafakkurning umumiy qonuniyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, ertak kompozitsiyasida kirish va tugallama qismlar voqeaning yaxlitligini ta'minlab, qahramon taqdirini g'oyaviy jihatdan yakunlaydi. Qahramonlarning nomsiz, umumiy obrazlar sifatida tasvirlanishi ertak mazmunining keng ijtimoiy va ramziy ma'noga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Bu holat ertaklarning xalqona tafakkur mahsuli sifatida tarbiyaviy, axloqiy va estetik ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komiljon Imomov. O'zbek xalq poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 251 b..
2. O'zbek Xalq Ertaklari. I jild. / Tahrir hay'ati: Xodi Zarif [va boshqalar]. Tuzuvchilar: M. Afzalov, X. Rasulov, Z. Husainova. Mas'ul muharrir: Mahkam Mahmudov. – Toshkent: O'qituvchi, 2013. – 384 b .
3. Grimm, J., Grimm, W. *Grimm's Fairy Tales*. – Translation by Margaret Hunt; – Maplewood Books, 2013. – 768 p.
4. www.theparisreview.org